

HUSNIXAT O'RGATISH TEXNLOGIYASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

*Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi*

Sabohat Rahmatullayeva

Shahina Usmonova Xudoynazar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti 3-21-guruh talabasi

Annotatsiya: husnixat o'rgatish texnologiyasi fani, talabalarga husnixat san'atining nazariy va amaliy jihatlarini o'rgatishga qaratilgan ta'lim yo'nalishidir. Ushbu fan, nafaqat yozuv san'atini rivojlantirish, balki talabalarning estetik qarashlarini kengaytirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish hamda madaniy merosni saqlash va rivojlantirish maqsadida muhim ahamiyatga ega. Husnixat o'rgatish texnologiyasi fani, shuningdek, yosh avlodni milliy madaniyatga bo'lgan hurmatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: husnixat san'ati, madaniy meros, ijodiy fikrlash, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tarixiy rivojlanish, uslublar, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация: Технология обучения каллиграфии — образовательное направление, направленное на обучение студентов теоретическим и практическим аспектам искусства каллиграфии. Этот предмет важен не только для развития искусства письма, но и для расширения эстетических взглядов учащихся, повышения их способности творчески мыслить, сохранения и развития культурного наследия. Предмет «Технология обучения каллиграфии» также играет важную роль в повышении уважения подрастающего поколения к национальной культуре.

Ключевые слова: каллиграфия, культурное наследие, творческое мышление, теоретические знания, практические навыки, историческое развитие, стили, современные технологии.

Abstract: The science of calligraphy teaching technology is an educational direction aimed at teaching students the theoretical and practical aspects of the art of calligraphy. This science is important not only for developing the art of writing, but also for expanding students' aesthetic views, increasing their ability to think creatively, and preserving and developing cultural heritage. The science of calligraphy teaching technology also plays an important role in increasing the respect of the younger generation for national culture.

Key words: calligraphy, cultural heritage, creative thinking, theoretical knowledge, practical skills, historical development, styles, modern technologies.

Yozuv, barchaga ma'lum bo'lganidek, kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi ekanligi barchaga ma'lumdur. Yozma nutq uzoq saqlanadi, shu sababli avlodlarni bir-biriga bog'laydi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi va abadiy yashaydi. O'zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy merosida chiroyli yozuvga o'rgatish, ya'ni xattotlik san'ati alohida o'rin egallaydi. Qo'lda ko'chirilgan, yozilgan har bir asar san'at mo'jizasi kabi nodir sanalgan. Bir qancha olimlar va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san'atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham mashxur bo'lganlar. Husnixatga o'qitishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozuv jarayoni murakkab uni o'rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu vazifalar ko'p qirralari bo'lib, o'quvchilarni aqliy rivojlanishga, ularning atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirishga axloqiy va estetik didlarini tarbiyalashga, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftar bilan ishlash ko'nikmalarini hamda yozuv daftar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda berilgan o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy material uyg'unlashtirilib, o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifati, topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart-sharoitlarga bog'liq. Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan chiroyli yozuvga bog'liq. Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning A shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda yozishga so'zlarda harflarni to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Daftar chiziqlari birin ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Husnixat darslarida ma'lum guruhga oid harflarni yozishga o'rgatish o'quvchilarda uchraydigan ayrim xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ish olib borish lozim. Yozuv tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o'xshash harflarni shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa, ularni qayta mashq qildirish kerak. Chiroyli yozuvga o'rgatishda daftardan to'g'ri foydalanishga e'tibor berish zaryr. Ikki chiziqli daftardan bir chiziqli daftarga o'tganda o'quvchilar oldiga qator vazifalar qo'yadi. Chiroyli yozuvga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga, yozuv malakasini shakllantiruvchi o'ziga xos qoidalarini ham o'z ichiga oladi. Umumiy didaktik qoidalar takroriylik, ko'rgazmalilik, yosh va o'ziga XOS xususiyatlarini hisobga olish, tushunarliklik, ongilik husnixat metodikasining

maqad va vazifalarini amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvga husnixatga o'rgatishning vazifasi harfni, so'z va gapni kitobdan va xattaxtdan to'g'ri, husnixat qoidalariga rioya qilib ko'chirib yozish, yozganlarni tekshira olish va yo'l qo'ygan kamchilik va xatolarini o'qituvchi rahbarligida yoki o'zi tuzata olishi kerak. Husnixat o'qitish metodikasi fani bir qator boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Estetika, fiziologiya, gigiena, tilshunoslik kabi fanlar bilan o'quvchilarda go'zallikka bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi. Chiroyli yozish ham go'zallikning bir bir ko'rinishidir. ko'rinishidir. Sharq Shar mutaffakkirlaridan biri bunday degan ekanlar:,, Chiroyli fikrlay oladi. Darhaqiqat, o'quvchi maktabga kelgan kunidan boshlab chiroyli yozuv malakalari haqida tanisha boshlaydi. Yozuv qachon paydo bo'lgan? U qanday davrlarni boshidan kechirib, hozirgi mavqega erishgan? Bu savollarga javob topish uchun insoniyat tarixiga nazar tashlash, uning aqlly yuksalish bosqichlarini birma - bir ko'zdan kechirmoq lozim. Albatta, inson avval gapirishni o'rgandi, so'ngra unda o'z tajribalarini kelgusi avlodlarga yetkazish istagi shakllandi va qo'liga qalam (avval bu vazifani oddiy tosh bajargan) oldi. Yozuv kishilarning o'zaro aloqa qilishida, fikr almashishida muhim vositadir. Yozuvning paydo bo'lishi, bo'lishi, aloqaning maxsus vositasi sifatida xizmatqilishkatta ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuv tufayli kishilik tajribasi avloddan avlodga yetkazilmoqda. Husnixat san'ati orqali talabalar estetik tushunchalarni o'zlashtirib, go'zallikni qabul qilish va uning ahamiyatini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Husnixat o'rgatish texnologiyasi orqali talabalar milliy va global madaniyatlarni o'rganish, ularning tarixiy rivojlanishini tushunish va saqlashga hissa qo'shadilar. Talabalar husnixatning turli uslublarini o'rganib, amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu esa ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Talabalarga husnixat san'atining nazariy asoslarini, tarixini va rivojlanish jarayonlarini o'rgatish. Amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar husnixat san'atining turli uslublarini o'rganish va qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Talabalarga ijodiy loyihalar ishlab chiqish orqali o'z g'oyalarini amalga oshirish va baholash imkoniyatini berish. Talabalar o'zaro baholash jarayonida bir-birining ishlarini tahlil qilib, konstruktiv fikrlar berishlari kerak. Bu jarayon ijodiy rivojlanishni rag'batlantiradi. Husnixat o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va vositalardan foydalanish, talabalarni yangi uslublar va metodologiyalar bilan tanishtirish. Har bir talabani individual ravishda kuzatib borish, ularning rivojlanishini baholash va kerakli yordam ko'rsatish. Husnixat o'rgatish texnologiyasi fanining maqsad va vazifalari talabalarni nafaqat husnixat san'atiga qiziqtirish, balki ularning ijodiy fikrlash, estetik sezgi va madaniy merosni saqlashga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan. Bu jarayon orqali talabalar nafaqat professional ko'nikmalarni egallaydi, balki shaxs sifatida ham rivojlanadilar. Husnixat san'ati — bu shunchaki yozuv emas, balki inson ruhiyatining ifodasi, madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. G`ulomov M. “Xusnixatga o`rgatishning bahzi masalalari”, “O`qituvchi”
2. nashriyoti, Toshkent 1969 y.
3. G`ulomov M. “Boshlang`ich sinf o`quvchilarini soddalashtirilgan harflar bilan
4. xusnixatga o`rgatish”, “O`qituvchi” nashriyoti, Toshkent 1970 y.
5. <https://pedagoglar.org/02/article/view/2798/2539>